

INGLIZ TILIDAGI GRAMMATIK TUSHUNCHALARNI O'ZLASHTIRISHDA TILLARARO FARQLARNI HISOBGA OLISH

<https://doi.org/10.2591/zenodo.18452997>

Usmonova Diyoraxon Furkatjon qizi

FarDU, o'qituvchi

Ingliz tili amaliy kursi kafedrası

E-mail: d.usmonova@pf.fdu.uz

ORCID: 0009-0001-3349-8955

Annotatsiya

Ingliz tilini yangi o'rgana boshlagan o'quvchilar uchun 'to be' fe'lini o'rgatish murakkab vazifalardan biri sanaladi, ayniqsa ularning ona tilida bu turdagi grammatik birlik mavjud bo'lmasa. Mazkur maqolada O'zbekistondagi ingliz tili o'rganuvchilarining 'to be' fe'lini hozirgi oddiy zamonda to'g'ri qo'llashdagi qiyinchiliklari tahlil qilinadi. Ingliz, o'zbek va rus tillaridagi grammatik tuzilmalar solishtirilib, 'to be' fe'lining o'zbek hamda rus tillarida bevosita ekvivalentining yo'qligi sababli o'quvchilar orasida ushbu fe'lni tushunmaslik, uni noto'g'ri ishlatish yoki umuman qo'llamaslik holatlari uchrashi ko'rsatib o'tiladi. Ushbu holatlarning sabablarini chuqurroq anglash uchun maqola turli tillarda olib borilgan empirik tadqiqotlarga tayanadi va ona tilining ta'siri til o'zlashtirish jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi.

Kalit so'zlar

ingliz tili grammatikasi, "to be" fe'li, boshlang'ich darajadagi o'quvchilar, grammatika o'rgatish, Present Simple Tense, grammatik tafovutlar, ona tili ta'siri, til transferi, empirik tadqiqotlar, taqqosloviiy tahlil, o'zbek va rus tillari, EFL, til o'rgatish metodikasi

Kirish

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatish ko'plab murakkab jihatlarni o'z ichiga oladi, ayniqsa o'quvchilar tilida mavjud bo'lmagan grammatik birliklarni tushuntirishda. Ushbu maqolada O'zbekistonda ingliz tilini endi o'rganayotgan boshlang'ich darajadagi o'quvchilarning hozirgi oddiy zamonda ishlatiladigan 'to be' fe'lini o'zlashtirishdagi muammolari yoritiladi. Ingliz tilidagi gap tuzilmasida muhim o'rin tutadigan ushbu fe'l, o'zbek va rus tillarida bevosita muqobilga ega emasligi sababli, o'quvchilar orasida tez-tez xatolarga olib keladi. Bu esa ushbu

grammatik birlikni o'rgatishda yangicha va maqsadli yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi. Shu bilan birga, maqolada 'to be' fe'lini turli til muhitlarida o'rganishga bag'ishlangan empirik tadqiqotlar ham ko'rib chiqilib, uni o'zlashtirishda qanday samarali usullarni qo'llash mumkinligi yuzasidan tavsifalar beriladi.

Metodlar

Ushbu maqolada qo'llanilgan metodologiya ingliz, o'zbek va rus tillari orasidagi grammatik tuzilmalarni taqqoslashga asoslangan. Ayniqsa, o'zbek va rus tillarida 'to be' fe'lining to'g'ridan-to'g'ri muqobili yo'qligiga alohida e'tibor qaratilgan. Har uchala tildan olingan misollar yordamida o'quvchilar duch keladigan asosiy chalkashliklar va tipik xatoliklar aniqlangan.

Tilshunoslikda taqqosloviiy tahlil usuli xorijiy til o'rganuvchilarining xatolarini oldindan ko'ra olish va ularning sabablari ustida ishlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu borada tilshunos olim Lado (1957) ta'kidlaganidek, taqqosloviiy tahlil ikkinchi tilni o'zlashtirishda muammolar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. U o'quvchining ona tili bilan o'rganilayotgan til o'rtasidagi grammatik farqlarni aniqlash va tushuntirish imkonini beradi. Ushbu maqolada ham aynan ana shu yondashuv asosida grammatik tafovutlar aniqlanib, ularning o'quvchilarning xatolariga qanday ta'sir qilishi tahlil qilingan.

Bundan tashqari, maqolada turli tilli muhitlarda 'to be' fe'lini o'zlashtirish bilan bog'liq empirik tadqiqotlar natijalari ham ko'rib chiqiladi. Bu tadqiqotlar ona tilining yangi til o'rganishga ko'rsatadigan ta'sirini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Odlin (1989) fikricha, tillararo taqqoslashlar transfer hodisasini chuqurroq anglash imkonini beradi va o'qituvchilarga o'quvchilarning xatolarini oldindan bashorat qilishda yo'nalish beradi.

Shunday qilib, grammatik tahlil va tadqiqotlar natijalarini birlashtirgan holda, maqola o'quvchilarning xatolariga sabab bo'layotgan omillarni aniqlab beradi hamda samarali ta'lim strategiyalarini taklif etadi.

Adabiyotlar tahlili

Tilshunoslar Greenbaum va Quirk (1990)ning ta'kidlashicha, 'be' ingliz tilidagi asosiy fe'llardan biri bo'lib, gapda bog'lovchi (kopulativ) vazifani bajaradi. Biber va boshqalar (2002) fikricha, bu fe'l ingliz tilida eng ko'p uchraydigan va eng muhim kopula fe'l hisoblanadi. Qizig'i shundaki, 'be' fe'li boshqa ko'pchilik fe'llarga nisbatan ilmiy matnlarda ko'proq uchraydi; bu esa uning rasmiy va strukturaviy nutqdagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Larsen-Freeman va boshqalar (2016) bu fe'lni ingliz tilidagi boshqa fe'llardan ajratib turadigan o'ziga xos jihatlarni chuqur o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotiga ko'ra, 'be' fe'li to'rtta asosiy grammatik xususiyatga ega:

1. Shakliy xilma-xillik – 'be' fe'lining hozirgi zamondagi (am, is, are) va o'tgan zamondagi (was, were) shakllari bor. Bu shakllar gapdagi shaxs, son va zamonga mos holda o'zgaradi. Masalan: *I am tired, She is late, They are ready, He was here, We were surprised.*

2. Turli so'z turkumlari bilan moslasha olishi – 'be' fe'li sifatlar, otlar va ravishlar bilan qo'llaniladi. Masalan:

Sifat bilan: *The water is cold. (Suv sovuq.)*

Ot bilan: *My brother is a doctor. (Akam shifokor.)*

Ravish bilan: *The children are outside. (Bolalar tashqarida.)*

3. Sintaktik moslashuvchanlik – 'be' fe'li boshqa yordamchi fe'llarga o'xshab, inkor va so'roq gaplarda 'do' yordamchisiz ishlatiladi. Masalan:

Inkor: *She is not at home today. (U bugun uyda emas.)*

So'roq: *Are they in the classroom? (Ular sinfxonadami?)*

4. Greenbaum va Nelson (2018) bu fe'lning gap tuzishdagi markaziy rolini ta'kidlaydi. 'Be' mustaqil operator bo'lib xizmat qiladi va turli grammatik maqsadlarda o'zgartirilishi mumkin. Masalan:

Oddiy gap: *This room is clean. (Bu xona toza.)*

Inkor: *This room is not clean. (Bu xona toza emas.)*

So'roq: *Is this room clean? (Bu xona tozami?)*

Bog'lovchi vosita: *This room is clean, but the next one is cleaner. (Bu xona toza, keyingisi esa yanada toza.)*

Shunday qilib, 'be' fe'li Present Simple Tense (hozirgi oddiy zamon)da gap qurilishining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Uning shakllari, qo'llanish doirasi va sintaktik xususiyatlarini o'rgatish xorijiy til sifatida ingliz tilini o'rganuvchilar uchun alohida ahamiyatga ega.

Ingliz tilidagi 'be' fe'li, ayniqsa hozirgi oddiy zamonda (Present Simple Tense), alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, ko'plab tillarda, jumladan, o'zbek va rus tillarida unga to'g'ridan-to'g'ri muqobil mavjud emas. Bu esa ushbu fe'l ingliz tili grammatikasida o'ziga xos strukturaviy vazifaga ega ekanligini ko'rsatadi (Larsen-Freeman va boshq., 2016).

Garchi O'zbekistondagi ingliz tili o'rganuvchilarning aynan 'be' fe'li bilan bog'liq muammolarini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqotlar kam bo'lsa-da, shaxsiy o'qituvchilik tajribam shuni ko'rsatadiki, bu fe'lning ishlatilishida xatolar turli darajadagi o'quvchilar orasida keng tarqalgan. O'quvchilar ko'pincha

'be' fe'lini gapdan tushirib yuboradilar yoki uni noto'g'ri shaklda ishlatadilar. Masalan:

- *My* *sister* *very* *smart.*

(To'g'risi: *My sister is very smart.*)

- *They* *from* *Tashkent.*

(To'g'risi: *They are from Tashkent.*)

- *It* *not* *interesting.*

(To'g'risi: *It is not interesting.*)

Bunday xatoliklar, ayniqsa ona tili o'zbek yoki rus bo'lgan o'quvchilar orasida tez-tez uchraydi. Har ikkala tilda ham Present Simple Tenseda gap tuzishda bog'lovchi fe'l talab etilmaydi, shuning uchun ingliz tilidagi 'be' fe'li ularning grammatik ongida yetarlicha mustahkam o'rnashmagan bo'lishi mumkin.

Shuningdek, 'be' fe'li ingliz tilida shaxs va zamonga qarab turli shakllarda qo'llaniladi, bu esa chet tilini o'rganuvchilar uchun yana bir muhim qiyinchilikdir. Masalan:

He is, We are, I am late kabi ifodalar fe'lining moslashuvchan shakllarini talab qiladi.

Ammo o'zbek tilida bu holat boshqacha: *U kasal, Men uyda, Biz tayyormiz* kabi gaplarda bog'lovchi fe'l ishlatilmaydi.

Rus tilida ham shunga o'xshash holat mavjud: *Она дома (U uyda), Мы готовы (Biz tayyormiz)* — bu yerda ham 'be' fe'lining o'rniga hech qanday fe'l ishlatilmagan.

Taqqoslash uchun:

- Inglizcha: *He is sick.*
- O'zbekcha: *U kasal.* (fe'l mavjud emas)
- Ruscha: *Он болен.* (fe'l mavjud emas)

Bu farqlar, ayniqsa boshlang'ich darajadagi o'rganuvchilarda 'be' fe'lini qo'llashda xatoliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Bu farqlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi 'be' fe'li nafaqat grammatik jihatdan maxsus e'tiborni talab etadi. Shu sababli, ushbu fe'lni o'rgatishda ona tilining ta'sirini inobatga olgan holda, maxsus metodik yondashuvlar ishlab chiqish lozim.

Empirik tadqiqotlar: Ingliz tilidagi 'be' fe'lining turli tillar kontekstida o'rganilishi

Scott va Tucker (1974), Tode (2003), Maros va boshqalar (2007), hamda Antonova Unlu va Hatipo'g'lu (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ingliz

tilini o'rganayotgan o'quvchilar, ayniqsa Present Simple Tense (hozirgi oddiy zamon)da 'be' fe'lini o'zlashtirishda duch keladigan muammolarni yoritadi.

Scott va Tucker (1974) arab tilida so'zlashuvchi talabalar ustida olib borgan tadqiqotida, grammatik xatolar ko'p hollarda ona tilining ta'siri natijasida yuzaga kelishini aniqlagan. Tadqiqotchilar o'qitish jarayonida turli gap tuzilmalaridan foydalangan holda o'quvchilarning tushunchalarini kengaytirish kerakligini ta'kidlaydilar.

Tode (2003) yapon o'quvchilari bilan olib borgan tadqiqotida esa mavjud o'quv metodlarining yetarli emasligini ko'rsatgan. U shakl va ma'no orasidagi bog'liqlikni tushuntirishga ko'proq e'tibor qaratish kerakligini ta'kidlaydi.

Maros va hamkasblari (2007) Malayziya o'quvchilarining insho ishlarini tahlil qilish orqali, grammatik xatolar, asosan, ona tili ta'siri bilan bog'liq ekanini ko'rsatgan va o'quv materiallari va uslublarini takomillashtirish zarurligini ilgari surgan.

Antonova Unlu va Hatipo'g'lu (2012) rus tilida so'zlashuvchi o'quvchilar ustida olib borgan tadqiqotida, 'be' fe'li bilan bog'liq xatolar hattoki uzoq vaqt til o'rganilganidan keyin ham davom etayotganini aniqlagan. Ular 'be' va 'do' fe'llarini farqlashni osonlashtiradigan, aniq va sodda o'qitish yondashuvini qo'llashni tavsiya etadi.

Mazkur tadqiqotlarning umumiy xulosasiga ko'ra, grammatika o'rgatishda kontekstga moslashgan strategiyalar, uzoq muddatli kuzatuvlar, hamda o'quvchining individual til fonini hisobga olgan holda yondashuv qo'llash muhim hisoblanadi.

Munozara

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistondagi boshlang'ich darajadagi ingliz tili o'rganuvchilari uchun Present Simple Tense, hozirgi oddiy zamonda, 'be' fe'lini o'zlashtirishda davomli qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. O'zbek va rus tillarida 'be' fe'lining to'g'ridan-to'g'ri muqobili yo'qligi ushbu grammatik birlikni tushunishda sezilarli bo'shliqni yuzaga keltiradi. Bu esa, o'quvchilarda fe'lni tushirib yuborish (*masalan, She intelligent*) yoki noto'g'ri so'z tartibida ishlatish (*masalan, Where you are from?*) kabi tipik xatolarga olib keladi.

Bunday xatoliklar, ayniqsa, 'be' fe'lining shaxs va zamonga qarab shaklini o'zgartirishi bilan murakkablashadi. O'quvchilar ona tilida bu turdagi shakliy moslashuvlarga duch kelmagani sababli, yangi strukturani ichki ongda shakllantirishda qiynaladilar. Ingliz, o'zbek va rus tillarini qiyosiy tahlil qilish orqali bu farqlar yaqqol namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilida *She is a student* gapida 'is' bog'lovchi fe'l sifatida ishlatilsa, uning o'zbekcha (*U talaba*) va ruscha

(Она студент) tarjimalarida bu fe'l butunlay mavjud emas. Bunday grammatik tafovutlar o'quvchilarda chalkashlik va tushunmovchiliklar keltirib chiqaradi, chunki ular ingliz tilida 'be' fe'lini ishlatish zaruratini tabiiy ravishda anglab yetolmaydilar.

Ushbu holatlarni tasdiqlovchi empirik tadqiqotlar ham mavjud. Scott va Tucker (1974) olib borgan tadqiqotlar, ona tilining ta'siri o'quvchining grammatikani o'zlashtirishiga qanday salbiy ta'sir ko'rsatishini ochib bergan. Shuningdek, Tode (2003) va Maros va boshqalar (2007) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar o'qitish jarayonida maqsadli metodik yondashuvlarni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, Antonova Unlu va Hatipo'g'lu (2012) tomonidan rus tilida so'zlashuvchi o'quvchilar ustida olib borilgan tadqiqotlar 'be' fe'li bilan bog'liq xatolar hattoki uzoq muddatli ta'sir (ya'ni ta'lim va mashg'ulot) ostida ham davom etayotganini ko'rsatadi. Bu esa aniq va kontekstga mos o'rgatish strategiyalari zarurligini yana bir bor isbotlaydi.

Tadqiqot natijalariga tayanib, ushbu maqolada o'quvchilarga tilshunoslik nuqtai nazaridan yondashish, ya'ni ingliz tilidagi 'be' fe'lining funksiyasini ularning ona tili bilan taqqoslab tushuntirish zarurligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, turli xil gap tuzilmalarini o'z ichiga olgan mashqlar, hamda shakl va ma'no o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan topshiriqlar orqali o'quvchilarning tushunchasini chuqurlashtirish mumkin. Bu esa, ularga 'be' fe'lining o'ziga xos o'rnini anglash va to'g'ri qo'llashda samarali yordam beradi.

Natijalar

Olib borilgan qiyosiy tahlillar hamda empirik tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi 'be' fe'lini samarali o'qitish uchun uning grammatikadagi o'ziga xos rolini aniq va tizimli tarzda tushuntirish lozim. O'zbekistondagi boshlang'ich darajadagi o'quvchilar, ularning ona tillari – o'zbek va rus tillarining xususiyatlari tufayli – 'be' fe'lini qo'llashda juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Ushbu xatolar ko'pincha fe'lni butunlay tushirib yuborish yoki noto'g'ri shaklda ishlatish holatlari ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu esa ularning ona tillarida 'be' fe'lga muqobil grammatik tuzilmaning yo'qligi bilan bog'liq.

Maqolada ko'rib chiqilgan empirik tadqiqotlar ham bu holatni tasdiqlaydi. Turli tillarda so'zlashuvchi o'quvchilarning hammasi 'be' fe'lini o'zlashtirishda muammolarga duch kelayotganini ko'rsatadi. Bu holat ushbu masalaning universalligi va jiddiyligini yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 'be' fe'lining shakllari va funksiyalarini ochiq o'rgatish, shuningdek, ingliz grammatikasini o'quvchilarning ona tillari bilan taqqoslab tushuntirish orqali ularning tushunishini ancha yaxshilash mumkin.

Xulosa

Ushbu maqola ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda, ayniqsa boshlang'ich bosqichda, 'to be' fe'lini o'zlashtirish bilan bog'liq lingvistik qiyinchiliklarni hal qilish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Ingliz, o'zbek va rus tillarining qiyosiy tahlili bu tillar orasida tuzilish jihatdan muhim farqlar borligini ko'rsatadi. Aynan shu farqlar o'quvchilarda 'to be' fe'lini tushirib yuborish yoki noto'g'ri ishlatish kabi keng tarqalgan xatolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Maqolada keltirilgan empirik tadqiqotlar bu holatni chuqurlashtirib tushuntiradi: turli tillarda so'zlashuvchi o'quvchilar ushbu fe'lni o'zlashtirishda jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar. Bu esa maqsadli va kontekstga moslashtirilgan ta'lim yondashuvlari zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqola ingliz tilini chet tili sifatida o'rgatishda konkret til kontekstini hisobga oluvchi metodik yondashuvlar zarurligini tasdiqlovchi ilmiy tadqiqotlar safiga o'z hissasini qo'shadi. Ayniqsa o'zbekistonlik o'quvchilar ehtiyojlarini inobatga olgan holda, ularni ingliz tilidagi grammatik murakkabliklarni yengib o'tishga tayyorlashda o'qituvchilar yanada samarali vositalar bilan ta'minlanadi.

QO'LLANILGAN MANBALAR RO'YXATI:

1. Antonova Unlu, E., & Hatipoglu, Ç. (2012). The acquisition of the copula be in present simple tense in English by native speakers of Russian. *System*, 40(2), 255–269. <https://doi.org/10.1016/j.system.2012.04.002>
2. Biber, D., Conrad, S., & Leech, G. N. (2002). *Longman student grammar of spoken and written English*. Longman.
3. Greenbaum, S., & Nelson, G. (2018). *An introduction to English grammar*. Routledge.
4. Greenbaum, S., & Quirk, R. (1990). *A student's grammar of the English language*. Longman.
5. Lado, R. (1957). *Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers*. Ann Arbor: University of Michigan Press.
6. Larsen-Freeman, D., Celce-Murcia, M., Frodesen, J., White, B., & Howard Alan Williams. (2016). *The grammar book: form, meaning, and use for English language teachers*. National Geographic Learning, Heinle Cengage Learning.
7. Maros, M., Hua, T. K., & Salehuddin, K. (2007). *Interference in learning English: grammatical errors in English essay writing among rural Malay secondary school students in Malaysia*. ResearchGate.

https://www.researchgate.net/publication/237782813_Interference_In_Learning_English_Grammatical_Errors_In_English_Essay_Writing_Among_Rural_Malay_Secondary_School_Students_In_Malaysia

8. Odlin, T. (1989). *Language Transfer: Cross-Linguistic Influence in Language Learning*. Cambridge: Cambridge University Press.

9. Scott, M. S., & Tucker, G. R. (1974). Error analysis and English-language strategies of Arab students. *Language Learning*, 24(1), 69–97. <https://doi.org/10.1111/j.1467-1770.1974.tb00236.x>

10. Tode, T. (2003). From unanalyzed chunks to rules: the learning of the English copula be by beginning Japanese learners of English. *IRAL - International Review of Applied Linguistics in Language Teaching*, 41(1). <https://doi.org/10.1515/iral.2003.002>